

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№2

2026
fevral



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr, 102 sahifa.
2026-yil, fevral*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RIVOJLANGAN MAMLAKATLAR BANKLARIDA RISK-MENEJMENTNING TASHKILIY MODELLARI.....	26
Madaminov Bekzod Allayarovich	
“HUDUDGAZTA’MINOT” AJ DA AMALGA OSHIRILGAN LOYIHALAR SAMARASI	32
Shukurillaev Jahongir Botir o’g’li	
HARBIY XIZMATCHI AYOLLARNING MAXSUS KIYIM SIFATIGA QO’YILADIGAN DASTLABKI TALABLARNI SHAKLLANTIRISH	37
Abduraxmanova N.D., Mirtolipova N.X., Nasirullayeva G.S.	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПРОБЛЕМЫ НЕСПЕЦИФИЧЕСКОГО ЯЗВЕННОГО КОЛИТА У ДЕТЕЙ	42
Закирова Бахора Исламовна, Каримов Достон Рустам угли	
ОЦЕНКА ВОЗДЕЙСТВИЯ ФИСКАЛЬНЫХ И КРЕДИТНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ НА РЫНКИ ВЫСОКОЛИКВИДНОЙ ПРОДУКЦИИ И ЕСТЕСТВЕННЫХ МОНОПОЛИЙ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	48
Бекзод Умматов	
ТРАНСФОРМАЦИЯ СИСТЕМ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ЭКОНОМИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА.....	55
Вахидов Азизжон Саиджонович	
SUG’URTA FAOLIYATIDAGI MOLIVAVIY RISKLAR: BAHOLASH VA MINIMALLASHTIRISH STRATEGIYALARI	58
Xalikulova Shirin Utkir qizi	
“ANDIJONDONMAHSULOT” AJ MISOLIDA XARAJATLARNING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBI: AMALIY TAHLIL VA TAKOMILLASHTIRISH TAVSIYALARI	62
Xayitboyeva Laylo Oybekovna	
XORIJIY MAMLAKATLARNING NORASMIY IQTISODIYOT DARAJASINI PASAYTIRISHDAGI TAJIRIBASI	66
Alimardonov G’ayratjon Nuraliyevich	
XO’JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA BARQARORLIK HISOBOTLARI AUDITINI SHAKLLANTIRISH	72
Xolikov Ravshan Anvar o’g’li	
PUL - KREDIT SIYOSATINING TRANSMISSION MEXANIZMINI RIVOJLANTIRISH	76
Obidova Zilola Ikromjon qizi	
HOMILADORLIK DAVRIDA AYOLLARDA UCHRAYDIGAN GESTOZLI KATARAL GINGIVITNI KOMPLEKS DAVOLASHNI OPTIMALLASHTIRISH	81
Nomurodova Farangiz Lazizovna	
AGRAR KORXONALARDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA INVESTITSIYA MEXANIZMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH YO’NALISHLARI	87
Egamberdiyev Abdujabbor Xusanovich	
YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA KICHIK BIZNES IQTISODIYOTINI TA’MINLASHDA INFRATUZILMALARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	92
Mirzatov Baxtiyor Toxirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOIYILLARI	96
Mavrulov Ravshan Nematjonovich	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI BAHOLASH METODOLOGIYASINING MAZMUNI VA TAMOYILLARI

Mavrulov Ravshan Nematjonovich

Namangan Davlat texnika universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD

Email: mavrulov1989@gmail.com

ORCID: 0009-0004-4940-5313

Annotatsiya. Mazkur maqolada kichik biznes subyektlari bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tizimning eng moslashuvchan va faol bo'g'ini sifatida tahlil qilinadi. Ular bandlikni oshirish, yangi daromad manbalarini shakllantirish hamda hududiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda muhim o'rin egallaydi. Shu bois, kichik biznes subyektlari faoliyatini ilmiy asosda baholash iqtisodiy siyosatni shakllantirish va samarali boshqaruv qarorlarini qabul qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: baholash konsepsiyasi, baholash mezonlari, kichik biznes, moliyaviy natijalar, boshqaruv sifati, innovatsion faollik, raqobatbardoshlik, institutsional muhit.

Abstract. This article analyzes small business entities as the most flexible and dynamic component of the economic system in a market economy. They play a significant role in increasing employment, generating new sources of income, and supporting regional development. Therefore, a scientific assessment of small business activities is of particular importance in the formulation of economic policy and effective management decision-making.

Keywords: assessment concept, assessment criteria, small business, financial results, management quality, innovative activity, competitiveness, institutional environment.

Аннотация. В данной статье малые предприятия рассматриваются как наиболее гибкое и динамичное звено экономической системы в условиях рыночной экономики. Они играют важную роль в повышении занятости, формировании новых источников доходов и поддержке регионального развития. В связи с этим научная оценка деятельности субъектов малого бизнеса имеет особое значение при формировании экономической политики и принятии эффективных управленческих решений.

Ключевые слова: концепция оценки, критерии оценки, малый бизнес, финансовые результаты, качество управления, инновационная активность, конкурентоспособность, институциональная среда.

KIRISH

So'nggi yillar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes subyektlari iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslasha oladigan sektor hisoblanadi. Jumladan, 2020-yilda pandemiya sharoitida talabning qisqarishi va ta'minot



zanjirlaridagi uzilishlar ko'plab korxonalar faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Biroq kichik biznes vakillari xizmat ko'rsatishning yangi shakllariga o'tish, onlayn savdo platformalaridan foydalanish hamda ichki bozor resurslarini kengroq safarbar etish orqali iqtisodiy faollikni ma'lum darajada saqlab qolishga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu davr kichik biznes uchun moslashuvchanlik va barqarorlik strategiyalarini shakllantirish bosqichi bo'ldi.

2025-yilga kelib esa mazkur sektorda sifat jihatidan yangi rivojlanish bosqichi kuzatildi. Iqtisodiy muhitning barqarorlashuvi, tadbirkorlik faoliyatini boshlash va yuritish tartib-taomillarining soddalashuvi, soliq yukining maqbullashuvi hamda moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining kengayishi kichik biznesning jadal rivojlanishiga mustahkam zamin yaratdi. Natijada yangi korxonalar soni ortdi, xizmatlar sohasi kengaydi, mahalliy va tashqi bozorlar uchun raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish faollashdi. Eng muhimi, kichik biznes subyektlari eksport jarayonlarida faolroq ishtirok eta boshladi, bu esa ularning moliyaviy barqarorligini mustahkamlab, risklarni diversifikatsiya qilish imkonini berdi.

2020-2025-yillarni qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli mazkur davr mobaynida sezilarli darajada o'zgardi. Agar 2020-yilda asosiy e'tibor mavjud korxonalarni saqlab qolish, ishlab chiqarish jarayonlarini moslashtirish va qisqa muddatli muammolarni yumshatishga qaratilgan bo'lsa, 2025-yilda rivojlanishning yangi drayverlari — investitsion faollik, innovatsion yondashuvlar va tashqi bozorlarga chiqish ustuvor yo'nalishlarga aylandi. Bu holat kichik biznes faoliyatini baholash tizimida ham tub o'zgarishlarni talab etmoqda.

Endilikda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash faqat sof foyda, rentabellik yoki aylanma mablag'lar hajmi kabi an'anaviy ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmaydi. Baholash jarayonida bandlikka qo'shilgan hissa, hududiy rivojlanishga ta'sir, innovatsion faoliyat darajasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'lami, eksport salohiyati hamda boshqaruv sifati kabi mezonlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan ushbu ko'rsatkichlar majmui kichik biznesni iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlovchi strategik sektor sifatida baholashga asos yaratadi.

Umuman olganda, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslari ko'p qirrali, tizimli va dinamik yondashuvni talab etadi. Kompleks baholash orqali nafaqat korxonaning hozirgi holati, balki uning kelgusidagi rivojlanish istiqbollari, bozorga moslashish qobiliyati hamda iqtisodiyotdagi tutgan o'rni aniqlanadi. Shu bois ushbu yo'nalish zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning dolzarb va muhim yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini baholashda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari alohida ahamiyatga ega. So'nggi yillarda respublikamizda amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish hamda tashqi bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida 2026-yilga borib mamlakat eksport hajmini sezilarli darajada oshirish, xalqaro talablar darajasiga mos standartlarni joriy etish hamda eksportchi tadbirkorlik subyektlariga tashkiliy va moliyaviy ko'mak ko'rsatish ustuvor vazifa sifatida belgilab berilgan.

Mazkur Farmonda eksport hajmini 2026-yilda 30 milliard AQSh dollariga yetkazish, tashqi bozor talablariga mos mahsulotlar ishlab chiqarish, milliy brendlarni shakllantirish, logistika infratuzilmasini takomillashtirish hamda kichik biznes subyektlarini eksport faoliyatiga keng jalb etish muhim yo'nalishlar sifatida qayd etilgan.

Bu esa kichik biznes faoliyatini baholashda nafaqat ichki bozor natijalarini, balki:

- eksport ulushini,
- tashqi bozorlardagi raqobatbardoshlik darajasini,
- xalqaro standartlarga moslashuvni,
- davlat tomonidan yaratilayotgan qo'llab-quvvatlash mexanizmlaridan foydalanish samaradorligini ham

inobatga olish zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar baholash tizimining konseptual asoslarini yanada kengaytirmoqda. Jumladan, Prezident va Hukumat qarorlarida tadbirkorlik subyektlarini ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarining soddalashtirilishi, soliq yukining kamaytirilishi, kredit va kafolat mexanizmlarining rivojlantirilishi, eksportga yo'naltirilgan korxonalarga subsidiya va grantlar ajratilishi kabi chora-tadbirlar belgilab qo'yilgan.

Natijada kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash nafaqat iqtisodiy natijalarni aniqlash vositasi, balki davlat siyosatining amalda qay darajada samarali amalga oshirilayotganini aks ettiruvchi muhim indikator sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-martdagi PF-50-sonli "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash hamda raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi

bozor segmentlariga chiqishni rag'batlantirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan.

Mazkur Farmonda 2025-2030-yillarda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish strategiyasi doirasida 2030-yilga borib yalpi ichki mahsulot hajmini 200 milliard AQSh dollariga yetkazish, kambag'allik darajasini 5 foizdan pastga tushirish hamda O'zbekistonni daromadi o'rta darajadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoriga kiritish maqsadlari ilgari surilgan. Ushbu ustuvor maqsadlarga erishishda barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan kichik va o'rta biznes subyektlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoitlar yaratish, ularning barqarorligini oshirish va yiriklashishini rag'batlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda respublikada 283,9 ming nafar yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda 905,8 mingdan ortiq kichik va o'rta korxonalar faoliyat yuritmoqda. Mazkur sohada 10,5 million nafar aholi band bo'lib, 2024-yil yakunlariga ko'ra yalpi ichki mahsulotning 54,3 foizi, sanoat mahsulotlarining 32,4 foizi hamda eksport hajmining 33,3 foizi kichik va o'rta biznes subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonda ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning muhim maqsadlaridan biri kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslarini rivojlantirishdan iboratdir.

Mahalliy olimlar M.P. Boltaboyev va M.S. Qosimovalarning fikrlariga ko'ra, kichik biznes faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar yirik kapital mablag'larini talab qilmagan holda yangi ish o'rinlarini yaratish, vaqtinchalik tovarlar tanqisligini yumshatish va ayrim holatlarda uni bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, kichik korxonalar texnologik yangiliklarni joriy etishda ham sezilarli ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlanadi.

Kichik biznes subyektlari faoliyati fan-texnika taraqqiyoti sharoitida sanoatning yetakchi tarmoqlarida yangi texnologiyalarga o'tishda tobora muhim o'rin egallab bormoqda. Ular ishlab chiqarishni takomillashtirish, yangi g'oyalar va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda.

Iqtisodchi G.U. Ziyadullayev tadqiqotlarida kichik biznes faoliyatini baholash nazariy asoslarining davlat strategiyasi bilan uzviy bog'liqligi qayd etiladi. Muallif kichik biznesni baholashda bandlik, innovatsiya va eksport salohiyati kabi davlat tomonidan belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarni nazariy konsepsiyaga integratsiya qilish muhimligini ta'kidlaydi.

Yangi O'zbekistonda kichik biznes subyektlarining rivojlanishiga oid tadqiqotlar ko'p yillik ilmiy izlanishlar va amaliy tajribalar natijasi sifatida shakllanmoqda. A. Xoskinning fikricha, qarorlarni mustaqil qabul qiluvchi, faoliyatini o'z mablag'lari hisobidan yurituvchi hamda biznesni boshqarishda shaxsiy javobgarlikni o'z zimmasiga oluvchi shaxs yakka tartibdagi tadbirkor hisoblanadi. Ushbu yondashuvda tadbirkorning boshqaruvdagi shaxsiy mas'uliyatiga alohida urg'u berilgan.

V.I. Vidyapin rahbarligida nashr etilgan "Umumiy iqtisodiy nazariya" darsligida tadbirkorlik faoliyati ijtimoiy ehtiyojlarni qondiruvchi mahsulot va xizmatlarni yaratish maqsadida ishlab chiqarish omillarini tashkil etish va birlashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi.

Shu bois kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashda faqat moliyaviy natijalar emas, balki innovatsion faollik ham muhim mezon sifatida qaralishi lozim. J. Shumpeter tadbirkorlikni iqtisodiyotdagi "yaratuvchi buzilish" mexanizmi sifatida izohlaydi. Demak, kichik biznes subyektlarining innovatsion tashabbuslari va texnologik yangiliklarni joriy etish qobiliyati baholashda alohida e'tiborga olinishi zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ilmiy ma'lumotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar hamda yetakchi xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari asosida shakllantirildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, mantiqiy umumlashtirish va tizimli yondashuv usullari orqali tahlil qilindi hamda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning ilmiy-amaliy jihatlari baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasi nafaqat ko'rsatkichlar majmui, balki aniq ilmiy tamoyillarga asoslangan yondashuvlar tizimidan iboratdir. Ushbu tamoyillar baholash jarayonining tashkil etilishi, foydalaniladigan ma'lumotlar bazasi hamda olingan natijalarning talqinini belgilab beradi.

Shu sababli kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqishda, avvalo, uning asosiy tamoyillarini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Quydagi jadvalda kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosiy tamoyillari, ularning mazmuni va amaliy ifodasi tizimli tarzda umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosiy tamoyillari¹

Tamoyil nomi	Tamoyilning mazmuni	Amaliy ifodasi
Komplekslik	Faoliyatni iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy jihatlarida baholash	Moliyaviy natijalar bilan birga bandlik va innovatsiyani baholash
Tizimlilik	Ko'rsatkichlar yagona tizimda baholanadi	Ko'rsatkichlarni bloklar bo'yicha guruhlash
Obyektivlik	Ishonchli va rasmiy ma'lumotlarga tayanish	Statistika va buxgalteriya hisobotlaridan foydalanish
Taqqoslanish	Hudud va davrlar bo'yicha solishtirish	Bir xil formulalar asosida tahlil qilish
Dinamiklik	Vaqt bo'yicha o'zgarishlarni baholash	O'sish sur'atlarini aniqlash
Adekvatlik	Ko'rsatkichlar real holatni aks ettirishi	Tarmoq xususiyatiga mos indikatorlar
Amaliy yo'naltirilganlik	Natijalar boshqaruv qarorlariga xizmat qiladi	Strategik rejalashtirishda foydalanish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, kichik biznes subyektlari faoliyatini baholash metodologiyasining asosini, avvalo, komplekslik tamoyili tashkil etadi. Ushbu tamoyil baholash jarayonida faqat foyda yoki rentabellik kabi tor ko'rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, balki korxonaning iqtisodiyot va jamiyatga ko'rsatadigan ta'sirini yanada kengroq qamrab oluvchi indikatorlar majmuasiga tayanishni nazarda tutadi. Shu bois samaradorlikni baholashda moliyaviy, ishlab chiqarish, marketing, innovatsion hamda ijtimoiy ko'rsatkichlar birgalikda qo'llanadi.

Baholashning nazariy asoslaridan kelib chiqib, kichik biznes subyektlarining rivojlanishini "yetuklik bosqichlari" orqali tavsiflash mumkin. Bugungi kunda ishlab chiqarish korxonalarining boshqaruv mexanizmi faqat ichki resurslar hisobiga emas, balki tashqi muhit bilan uzviy aloqada faoliyat yuritadi. Jumladan, bozor talabi, narxlar darajasi, raqobat muhiti, davlat siyosati hamda infratuzilma omillari korxona faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shu sababli tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni to'g'ri baholashda uni "tashqi talablar → ichki resurslar → natija" zanjiri orqali yoritish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur o'zaro bog'liqlikni quyidagi rasm orqali yaqqol tasvirlash mumkin (1-rasm).



1-rasm. Tashqi va ichki muhit bilan bog'liqlik modeli

Tashqi muhit korxonaga turli kanallar orqali ta'sir etishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, bozor talabi va narxlar ishlab chiqarish rejalari hamda sotuv strategiyasini belgilab bersa, raqobat muhiti mahsulot sifati, tannarx darajasi va xizmat ko'rsatish sifatini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Davlat siyosati (soliq, kredit, bojxona va qo'llab-quvvatlash dasturlari) korxonaning moliyaviy rejalashtirish jarayoniga hamda investitsiya qarorlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Infratuzilma va logistika tizimi esa xomashyo yetkazib berish, zaxiralarni boshqarish va mahsulotlarni yetkazib berish muddatlari bilan bog'liq xatarlarning shakllanishiga ta'sir qiladi.

1 Muallif ishlanmasi

Kichik biznes subyektlari faoliyatini baholashning nazariy asoslarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, baholash jarayoni bozor iqtisodiyoti sharoitida faqat oddiy hisob-kitoblar yoki hisobot ko'rsatkichlarini jamlash bilan cheklanmaydi. Avvalo, kichik biznesning iqtisodiyotdagi funksional rolini to'g'ri anglash va ushbu rolni to'liq aks ettira oladigan ko'p mezonli yondashuvni shakllantirish talab etiladi. Kichik biznesning moslashuvchanligi, resurslardan tejamkor foydalanishi, bandlikni ta'minlashi, bozor raqobatini kuchaytirishi va innovatsion faollikka turtki berishi uning faoliyatini baholashda faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolish yetarli emasligini ko'rsatadi. Shu bois baholashning nazariy mazmuni korxona faoliyatini bir yoqlama talqin qilishdan voz kechib, uni iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillarning o'zaro bog'liqligi asosida ko'rib chiqishga yo'naltiriladi.

Bundan tashqari, baholash jarayonini ikki asosiy yo'nalishda talqin qilish mumkin. Birinchisi — baholashni korxonaning joriy holatini aniqlovchi diagnostik jarayon sifatida ko'rish; ikkinchisi — baholashni kelgusidagi rivojlanish, raqobatbardoshlik va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiluvchi strategik boshqaruv instrumenti sifatida talqin etishdir. Amaliy jihatdan kichik biznes subyektlari uchun aynan ikkinchi yondashuv muhim hisoblanadi, chunki ular ko'pincha bozor tebranishlari, resurslarning cheklanganligi va raqobat bosimi sharoitida faoliyat yuritadilar. Shu sababli baholash natijalari korxona rahbariyatiga "qaysi yo'nalishlarni kuchaytirish zarur?", "qaysi xatarlar ustuvor hisoblanadi?", "qaysi ko'rsatkichlar o'sish bosqichiga olib chiqadi?" kabi savollarga aniq va asosli javob bera oladigan darajada shakllantirilishi lozim.

Mazkur bloklar bir-birini to'ldiradi va baholash natijasini yaxlit tizim sifatida ifodalaydi. Masalan, moliyaviy natijalar yuqori bo'lgani holda bozor ko'rsatkichlari yetarli darajada rivojlanmagan bo'lsa, korxonaning sotuv kanallari yoki mijozlar bilan ishlash tizimini takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Yoki foyda ko'rsatkichlari barqaror bo'lsa-da, innovatsion va raqamli ko'rsatkichlar past darajada qolsa, qisqa muddatda ijobiy natijalarga erishilgan bo'lsa ham, uzoq muddatli raqobatbardoshlik masalalari dolzarbligicha qoladi. Shu tariqa baholash bloklari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlikni aniqlash baholashning nazariy jihatdan mukammalligini ta'minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy xulosalardan biri shundan iboratki, baholash mezonlari va indikatorlar tizimi statik emas, balki iqtisodiy sharoit va davr talablariga mos ravishda dinamik tarzda yangilanib borishi lozim. 2020-2025-yillar tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, 2020-yilda baholashda barqarorlik, likvidlik, xarajatlarni optimallashtirish va xatarlarni kamaytirish kabi ko'rsatkichlar ustuvor ahamiyatga ega bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga kelib o'sish, diversifikatsiya, raqamlashtirish, innovatsiyalarni joriy etish va eksport salohiyatini oshirish kabi ko'rsatkichlarning ahamiyati sezilarli darajada ortdi. Mazkur holat baholash metodologiyasida indikatorlarning ahamiyat koeffitsientlarini mavjud sharoitga mos ravishda qayta belgilash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Demak, baholash jarayoni barcha davrlarda bir xil ko'rsatkichlarga teng vazn berish emas, balki iqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib ustuvor yo'nalishlarni aniqlash asosida doimiy takomillashtirib boriladigan tizim bo'lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Boltabayev M.P., Qosimova M.S. va boshq. Kichik biznes va tadbirkorlik: o'quv qo'llanma. – Toshkent: Noshir, 2011. – 38 b.
2. Ziyadullayev G.U. Yangi O'zbekistonda kichik tadbirkorlikning rivojlanish tendensiyalari // Innovations in Science and Technologies. – 2025. – Issue 3.
3. Хоскин А. Курс предпринимательства. – Москва, 1993. – С. 23.
4. Видяпин В. И. Общая экономическая теория: учебник. – Москва: ПРОМО-МЕДИА, 1995. – С. 165.
5. Schumpeter J. The Theory of Economic Development. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1934. – 255 p.
6. Drucker P. F. Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles. – New York: Harper & Row, 1985. – 277 p.
7. Kaplan R. S., Norton D. P. The Balanced Scorecard Measures that Drive Performance // Harvard Business Review. – 1992. – Vol. 70, No. 1. – P. 71–79.
8. Barney J. Firm Resources and Sustained Competitive Advantage // Journal of Management. – 1991. – Vol. 17, No. 1. – P. 99–120.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100